


MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHARQ
IJTIMOIY
FANLAR
JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
СОЦИАЛЬНЫХ
НАУК

ORIENTAL
JOURNAL
OF SOCIAL
SCIENCES



ISSN 2181-2829

2025





THE ROLE OF THE "KOPKARI" EQUESTRIAN SPORT IN THE DEVELOPMENT OF ETHNOTOURISM IN THE YANGIKORGON DISTRICT

Bobir Odilov

Associate Professor at Tashkent State University of Oriental Studies, PhD in History

Shohsanam Toshtemirova

Master's student at Tashkent State University of Oriental Studies

Tashken, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ko'kpari, Uloq, equestrian sport, Central Asia, ethnotourism, Yangiqo'rg'on, traditional games, cultural heritage.

Received: 27.02.25

Accepted: 01.03.25

Published: 03.03.25

Abstract: The article explores the origins and semantic meanings of the terms "Ko'kpari" and "Uloq," along with the Central Asian peoples' cultural relationship with horses. It examines the traditional rules of kökpari and its role in modern tourism. Special emphasis is placed on the significance of kökpari games in developing ethnotourism in Yangiqo'rg'on district. The study highlights the economic and cultural impact of these competitions, their potential to attract tourists, promote local heritage, and contribute to the development of regional tourism infrastructure.

YANGIQO'RG'ON TUMANI ETNOTURIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA "KO'PKARI" OT SPORT TURINING O'RNI

Bobir Odilov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Shohsanam Toshtemirova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ko'pkari, uloq, ot sporti, O'rta Osiyo, etnoturizm, Yangiqo'rg'on, an'anaviy o'yinlar, madaniy meros.

Annotatsiya: Maqolada "Ko'pkari" va "Uloq" so'zlarining kelib chiqishi va semantik ma'nosi yoritilib, O'rta Osiyo xalqlarining otga bo'lgan munosabati tahlil qilinadi. Shuningdek, ko'pkarining an'anaviy o'tkazilish tartibi va uning zamonaviy turizmdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Yangiqo'rg'on tumanida etnoturizmni rivojlantirish jarayonida ko'pkari musobaqalarining roli va uning

iqtisodiy hamda madaniy jihatdan ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Ushbu an'anaviy ot sporti turi mintaqaga sayyohlarni jalb qilish, mahalliy madaniyatni targ'ib etish va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

РОЛЬ СПОРТИВНОГО ИГРЫ "КУПКАРИ" В РАЗВИТИИ ЭТНОТУРИЗМА В ЯНГИКУРГАНСКОМ РАЙОНЕ

Бобир Одиллов

Доцент, Ташкентского государственного университета востоковедения, доктор философии (PhD) по истории

Шохсанам Тоштемурова

*Магистрант, Ташкентского государственного университета востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: копкари, улок, конный спорт, Центральная Азия, этнотуризм, Янгикургон, традиционные игры, культурное наследие.

Аннотация: В статье освещены происхождение и семантическое значение слов «купкари» и «улак», а также анализируется отношение народов Центральной Азии к лошадям. Также рассматривается традиционный порядок проведения игры ко'пкари и её место в современном туризме. В статье подробно анализируется роль ко'пкари в процессе развития этнотуризма в Янгикургонском районе, а также его экономическое и культурное значение. Подчеркивается, что этот традиционный вид конного спорта может способствовать привлечению туристов в регион, популяризации местной культуры и развитию туристической инфраструктуры.

Ko'pkari o'yini bugungi kunda Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Afg'onistonda keng tarqalgan milliy sport turlaridan biri sanaladi. Ushbu o'yin nafaqat erkaklarning jismoniy kuch-qudratini, balki chavandozlik va epchillik mahoratini ham sinovdan o'tkazuvchi qadimiy musobaqa hisoblanadi. Ming yillardan beri ot o'yinlarining eng ommabop shakllaridan biri bo'lib kelgan ko'pkari, ayniqsa, o'zbeklar orasida ajralmas milliy an'anaga aylangan.

Har bir mintaqada bu o'yin turlicha nomlanadi. Masalan, o'zbeklar orasida u "ko'pkari" yoki "uloq" deb ataladi, qirg'izlarda esa "ko'kbo'ru" nomi bilan mashhur. Qozoqlar bu o'yinni "ko'kpar tortu", tojiklar va afg'on o'zbeklari esa "bo'zkashi" deb atashadi.

Shuningdek, Oltoy turkiy xalqlari va qirg'izlarda ushbu o'yinda ishtirok etuvchilarni "bo'rilar" deb atashgan. Shimoliy Qirg'iziston hududida esa ushbu milliy sport "uloq tortish" nomi bilan yuritilib, ishtirokchilarga "uloqchilar" deyiladi. Ayrim tadqiqotchilar esa "ko'kpar" so'zining kelib chiqishini "ko'k pari" iborasidan hosil bo'lgan deb hisoblaydilar, bu esa o'yinning qadimiy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'pkari nafaqat sport turi, balki jamoaviy ruh, mardlik, jasorat va o'zaro hamjihatlikni tarbiyalaydigan qadimiy meros sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'yin nafaqat O'rta Osiyoda, balki butun turkiy dunyoda chavandozlik san'atining o'ziga xos timsoli sifatida qadrlanadi.

"Ko'pkari" va "uloq" so'zlari Markaziy Osiyo xalqlarining milliy ot sporti o'yinini ifodalovchi atamalar bo'lib, ular bir-biriga ma'nodosh hisoblanadi. "Ko'pkari" so'zi ikki qismdan iborat:

- "Ko'p" – turkiy tillarda "ko'pchilik, omma" ma'nosini anglatadi.
- "Kari" (forscha "kor") – "ish, mehnat, harakat" degan ma'noga ega.

Demak, "ko'pkari" so'zi "ko'pchilikning ishi" yoki "jamoaviy musobaqa" degan ma'noni anglatadi. Ushbu tushuncha o'yinning jamoaviy xarakterini aks ettiradi. "O'zbekiston milliy sport turlari va xalq o'yinlari ensiklopediyasi"da ko'pkari so'zining kelib chiqishi haqida aynan shu talqin berilgan.

"Uloq" so'zi esa o'zbek tilida bir nechta ma'noga ega bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da u "echkinning bolasi", "milliy sport o'yini" hamda ushbu o'yinda ishlatiladigan hayvon go'shti yoki jasadi sifatida izohlangan. "O'zbek tilining etimologik lug'ati" esa bu so'zning "echki" va "ko'pkari" ma'nolarini anglatishini qayd etadi. Tilshunos olim Sh. Rahmatullayevning ta'kidlashicha, qadimgi turkiy tilda "ulağ" shaklida ishlatilgan bu so'z dastlab "miniladigan hayvon" degan ma'noni bildirgan. Keyinchalik u "echki" ma'nosini olgan va vaqt o'tishi bilan "ko'pkari" o'yiniga bog'liq tushunchaga aylangan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida esa "og'laq" (keyinchalik "uloq" shakliga o'tgan) so'zi uchraydi. Unga ko'ra, bu atama qadimdan turkiy qabilalar orasida mashhur bo'lgan o'yinni ifodalagan. Ushbu o'yinda chavandozlar o'z mahoratini sinab, echki yoki qo'zining jasadi (hozirgi vaqtda esa uning maxsus tayyorlangan teri yoki sun'iy muqobili) ustidan nazorat o'rnatish uchun bahslashishgan. Bu jarayonda nafaqat jismoniy kuch, balki otni mohirlik bilan boshqarish, epchillik va taktik mahorat ham muhim rol o'ynagan. Shu bois "uloq" va "ko'pkari" atamalari ko'pincha bir-birining sinonimi sifatida qo'llanilib kelgan.

Odatda ko'pkari salqin ob-havo sharoitida, ya'ni sentyabr oyidan 10–15-yanvargacha va 10-martdan aprel oyigacha o'tkaziladi, tog'li hududlarda esa hatto may oyigacha davom etishi

mumkin. Shu davr ichida sayislar (otboqarlar) otlarni o'yinga tayyorlaydi. Chilla – ya'ni 40 kunlik maxsus parvarish jarayoni – iyun oxiridan avgustgacha davom etadi. Bu davrda ot salqin joyda saqlanib, maxsus qoplama – bosilidiriq bilan yopiladi va arpa bilan oziqlantiriladi. Oldiniga otga so'yilgan echkinning qoni bilan aralashtirilgan arpa beriladi, bu esa ot tanasida turli o'zgarishlarni – masalan, oyoqlarda suv yig'ilishi va yugurish natijasida yuzaga keladigan muammolarni oldini oladi. Shundan so'ng 40 kunlik chilla boshlanadi. Dastlabki 5 kun davomida arpa bug'doy somoni bilan aralashtirib beriladi .

Turkiy xalqlar tarixida ot alohida o'rin tutgan bo'lib, uning jasorat, boylik va baraka timsoli sifatida e'tirof etilishi qadimiy manbalarda qayd etilgan. Tarix otasi Gerodot massagetlarning mard va jasur jangchilar ekanligini ta'kidlab, ularning eng yaxshi otlarga ega bo'lganini yozgan. Bu holat faqat massagetlarga xos bo'lmay, umuman ko'chmanchi turkiy xalqlarning hayot tarzida otning muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Rim va Xitoy yilnomachilari ham bu fikrni tasdiqlab, turkiy xalqlarning o'ziga xos ot boqish madaniyatini, shuningdek, ularning "samoviy otlar"ga egaligini qayd etishgan .

Qadimiy yozma manbalardan biri "Avesto"da ham chavandozlik san'ati va otga bo'lgan e'tibor o'z ifodasini topgan. Bu manbada qora tulpori jilovlagan Siyovush obrazi "Aspa-barak" nomi bilan mashhur bo'lib, qadimgi Xorazm tilida "otliq chavandoz" degan ma'noni anglatgani ta'kidlanadi. Shuningdek, "Avesto"da quyosh xudosi Mitraga bag'ishlangan qasida ham tilga olinib, to'rt oppoq tulpor abadiy va uchqur arg'umoqlarning aravaga qo'shilgani haqida yozilgan. Bu esa otlarning nafaqat yer yuzidagi hayotda, balki diniy e'tiqodlarda ham muhim o'rin tutganini ko'rsatadi .

Ot faqatgina janglarda emas, balki xalq o'yinlari va turli marosimlarda ham muhim rol o'ynagan. Mahmud Koshg'ariy davrida ot poygasi va o'q otish musobaqalari keng tarqalgan bo'lib, ular xalq o'yinlarining ajralmas qismi hisoblangan. Mahmud Koshg'ariy o'z asarida bu o'yinlarning qoidalari va garov tizimi haqida yozib, ot poygalarining muhimligini ta'kidlaydi. Bunday musobaqalar otni nafaqat transport vositasi yoki jangovar kuch sifatida, balki ijtimoiy hayotning markaziy qismi sifatida ham ko'rsatadi .

Chavandozlik madaniyati turkiy xalq og'zaki ijodida ham keng yoritilgan. Masalan, "Alpomish" dostonida otning qadr-qimmatini, chavandozlik san'ati, poygalar va uloq-ko'pkari kabi o'yinlarning tasviri uchraydi. Alpomishning Boychibor nomli oti dostonning markaziy obrazlaridan biri sifatida gavdalanadi . Bu esa otning nafaqat hayotiy, balki ramziy ahamiyatga egaligini ham bildiradi. Shuningdek, Abulqosim Firdavsiy qalamiga mansub "Shohnoma" dostonida ham ot bilan bog'liq odatlar va an'analar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan .

Shundan kelib chiqadiki, ot o'yinlari va ot bilan bog'liq urf-odatlarining ildizlari juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Turkiy xalqlarda ot murod timsoli sifatida qaralgan. Rivoyatlarga ko'ra, ot Yaratuvchidan har kuni qirqta rizq so'rab, shundan o'ttiz to'qqiztasini o'z egasiga, bittasini o'ziga tilagan. Shu sababli, ot boqadigan oilalarda qut-baraka bo'lishiga ishonishgan. Bu e'tiqodlar va urf-odatlar ming yillar davomida turkiy xalqlarning madaniy va ijtimoiy hayotida chuqur ildiz otgan bo'lib, hozirga qadar saqlanib kelmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixan otga alohida e'tibor berib kelgan. Farzandlarni uch yoshidan boshlab ot minishga o'rgatish odati bu hududda chavandozlik madaniyati qanchalik yuqori darajaga yetganini ko'rsatadi. Turk xalqlari urf-odatlarini o'rganib chiqqan A.A. Divayev qirg'izlarning aza marosimlari haqidagi tadqiqotlarida ham ot bilan bog'liq qadimiy marosimlar haqida ma'lumot beradi. Ushbu odatlar XX asrga qadar saqlanib kelgan bo'lib, G.N. Simakov va Valijon xo'ja Yuldashevning izlanishlarida ham bu an'analar qayd etilgan. Masalan, 1980-yilda Qirg'izistonning Olabuqa tumani, Shokaptar qishlog'ida yashovchi Turdiali polvon oilasida ota vafotidan bir yil o'tib, "yil oshi" marosimi o'tkazilgan. Ushbu marosim doirasida katta dasturxon yozilib, butun el uchun osh tarqatilgan, shuningdek, an'anaviy ommaviy ot poygasi uyushtirilgan. Poyga masofasi 20 km qilib belgilangan.

Shohimardon Ibrohimovning kuzatuvlariga ko'ra, qirg'izlar o'z otlariga juda katta mehr va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishgan. Sakkiz kunlik tayyorgarlik davomida otlarga suv berilmay, faqat sut ichirilgan, shuningdek, ularning ko'z tegishidan saqlash maqsadida bo'yinlariga boyo'g'li patlari yoki mullalar tomonidan berilgan tumanlar bog'langan. Ba'zan ot egalari tun bo'yi otlarini nazorat qilib, ularning to'liq tayyor ekanligiga ishonch hosil qilishgan. Poyga kuni ertalab maxsus otliq kishi barcha ot egalari musobaqaga borish vaqti kelganini e'lon qilgan. Musobaqaning boshlang'ich nuqtasi 30-40 verst (1 verst 1.066 kmga teng) uzoqlikda joylashgan bo'lib, otlar bir joyga yig'ilgach, poyga boshlangan.

Poygani tomosha qilish uchun minglab odamlar to'plangan, va ular otlarning kelishini intiqlik bilan kutishgan. Chang-to'zon ko'tarilishi bilan odamlar g'olib otni aniqlashga harakat qilib, bahslarga kirishgan. Nihoyat, poygachilar kelgach, hamma ularni olqish bilan kutib olgan. Ot ustida o'tirgan bolalar g'olib bo'lish uchun bor kuchi bilan harakat qilgan, yonida borayotgan chavandozlar esa otlarning tezligini oshirish uchun ularni qamchi bilan urgan. Ba'zi bolalar esa musobaqa chog'ida ot ustidan tushib ketib, hatto hayotdan ko'z yumgan holatlar ham kuzatilgan. Ibrohimov o'z kuzatuvlarida shunday bir holatni qayd etgan: otasidan qarz olib, musobaqaga ot qo'ygan bir yigitning oti g'alaba qozongan, biroq chavandozi halok bo'lgan. Shunga qaramay, otning g'alabasi tan olingan va unga berilgan sovrinlar – bitta tuya, ikkita kısırak, bitta buqa va

15 ta qo'y – chavandozning otasiga topshirilgan. Biroq, marhumning otasi sovrinni kam deb hisoblab, kattaroq tovon talab qilgan va bu masala katta sulh yig'ilishida muhokama qilingan.

Bunday an'anaviy marosimlar haqida yana bir muhim ma'lumotni rus sayyohi Filipp Nazarov yozib qoldirgan. U Qirg'izistonda o'tkazilgan bir "yil oshi" marosimida 80 ta ot va 60 ta qo'y qurbonlik qilinganiga guvoh bo'lgan. Bu marosimning asosiy qismi ot poygasi bo'lib, musobaqa 40 verst masofada tashkil qilingan. Natijada juda ko'p otlar holdan toyib yo'lda qoldi, ba'zilar esa nobud bo'ldi. G'olib chavandozga 75 ta ot va yetti nafar qalmiq (qullikda bo'lgan xizmatkorlar) hadya etilgan. Ikkinchi o'rinni egallagan chavandoz 40 ta ot va 25 ta mol, uchinchi o'ringa esa 30 ta mol va 20 ta qo'y topshirilgan. Hatto eng oxirgi kelgan chavandoz ham mukofotsiz qolmagan – unga bitta biyo berilgan. Poygadan so'ng hamma marhumga duo qilib, tarqalgan.

Bu ma'lumotlar Markaziy Osiyo, xususan, qirg'iz va o'zbek xalqlari orasida ot poygalari nafaqat sport musobaqasi, balki diniy va ijtimoiy an'analar bilan bog'liq muhim marosim bo'lganini ko'rsatadi. Ushbu musobaqalar marhumlarni sharaflash, jamoat birdamligini mustahkamlash va ijtimoiy mavqeni ko'rsatish vositasi sifatida qaralgan. Qirg'izlar otga nafaqat transport vositasi sifatida, balki ularning hayotining ajralmas qismi sifatida qarashgan va bugungi kunda ham bu an'analar turli shakllarda saqlanib qolgan.

Tadqiqotchi Ahror Azizov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda Andijon viloyati, Bulaqboshiy tumani, Shirmanbuloq qishlog'ida ot bilan bog'liq o'yinlar xotiralari saqlanib qolganligi qayd etilgan. Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, mazkur qishloqda ilgari "o'pka jangi" deb nomlanuvchi o'yin mavjud bo'lgan. Bu o'yin odatda to'ylarda o'tkazilgan bo'lib, unda to'y oldidan so'yilgan buqaning o'pkasi ikkiga bo'linib, ishtirokchilarga berilgan. O'yin davomida qatnashchilar o'pkalar bilan bir-birlarini urib, yiqitishga harakat qilishgan. Hozirgi kunda esa bunday o'yinlar o'tkazilmaydi.

Shuningdek, qishloqda yana bir ot bilan bog'liq o'yin "ot ustida olishuv" deb nomlangan. Ushbu o'yinda ikki chavandoz bir-biriga yaqinlashib, qo'llaridan mahkam ushlagan va belgilangan ishora berilgach, olishuv boshlangan. Kim birinchi bo'lib ot ustidan yiqilsa, o'sha yutqazgan deb hisoblangan. Mahalliy aholining fikriga ko'ra, bunday o'yinlar nafaqat jismoniy chiniqish uchun, balki ot va inson o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlash uchun ham muhim bo'lgan. Xalq orasida ot insonning umrbod yo'ldoshi sifatida qabul qilingan.

Ko'pkari o'yinida ot anjomlari va chavondozlarning kiyim-kechaklari hududiy sharoit va uloq turiga qarab tanlanadi. Buzoq tanali uloqda mustahkam egar va uzun uzangi ipi ishlatilsa, echkili uloqda engil egar va kalta ip afzal ko'riladi. Turkiy xalqlarda egar va uni yasovchi ustalar qadrlangan, hatto ko'pkari g'oliblariga eng qimmat sovrin sifatida egar berilgan. Otlar uchun

taqalar ham joyning relefiga mos tanlangan: tog' hududlarida poshnali, tekis joylarda poshnasiz taqalar ishlatilgan. Chavandozlar jismoniy tayyorgarlikdan o'tib, yuqori kaloriyalı taomlar iste'mol qilgan. Ularning etiklari baland poshnali va qo'nji keng bo'lib, jarohatlardan himoya qiluvchi mato bilan o'ralgan. Bosh kiyim sifatida telpak, durra yoki charm shlem kiyilgan. Chavandoz va ot yomon ko'zdan himoyalanişi uchun maxsus taqinchoqlar taqilgan .

Ko'pkarida quyidagi zotdagi otlar qatnashadi:

- «to'riq» (to'riq) — g'ijim, to'q qizil-jigarrang otlar;
- «saman» (saman) — bulana (savras) otlar;
- «targ'il» (targ'il) — yo'lbars tusli, qora-oltin rangdagi otlar;
- «bo'z» (bo'z) — siva (kulrang) otlar, ochiq rangli otlar;
- «jiyron» (jiyron) — jigar rang, qizg'ish-jigarrang otlar, oyoqlarida oq belgilar bo'ladi;
- «qashqa» (qashqa) — peshonasida oq belgisi bor otlar (tusi qanday bo'lishidan qat'i nazar);
- qora va boshqa turdagi otlar .

Farg'ona vodiysida ko'pkari ikki-uch kun davom etadi. Birinchi kuni yosh chavandozlar maydonga tushib, tajribali chavandozlar ishtirok etmaydi. Yosh chavandozlar uchun maxsus yengil uloqlar tayyorlanadi, g'oliblar esa kiyim-kechak va xo'jalik buyumlari bilan taqdirlanadi. Keyingi kun asosiy musobaqa o'tkazilib, unda yuzlab chavandoz ishtirok etadi.

Hududga xos xususiyatlardan biri shundaki, Namangan viloyatida otga o'ngarilgan uloqni tortish taqiqlangan (biroq bu qoidaga hamma ham rioya qilmaydi). Ilgari Farg'onada ko'pkari oldidan shorva, o'yindan keyin esa osh berish odat bo'lgan. Hozir esa faqat nahorgi osh an'anasi saqlanib qolgan.

Yirik musobaqalarda mehmon chavandozlarning urf-odatlariga moslashish uchun ba'zan o'yin qoidalari o'zgartirilishi mumkin. Masalan, Toshkent, Samarqand yoki Qirg'iziston chavandozlari kelganda, uloq o'rniga echki ishlatilishi mumkin.

Ilgari Farg'ona vodiysida marrasiz ko'pkari o'ynalgan, chavandoz uloqni ot ustiga o'ngarib tortishi asosiy shart bo'lgan. Keyinchalik, boshqa hududlardan kelgan chavandozlar ta'sirida marrali o'yinlar ham ommalashgan. To'ylarda marrali ko'pkari o'tkazilgan bo'lsa, bayramlarda an'anaviy shaklda davom etgan.

Hakamlar hay'ati o'yinni boshqarib, g'olib chavandozlarni ot, qo'y, pul va xo'jalik buyumlari kabi sovrinlar bilan taqdirlaydi. Farg'onada "aylanma", "futbol", "qoqlama" va "shog'uloq" kabi ko'pkari turlari mavjud. Uloq o'yinida marra va otning zoti katta ahamiyatga ega. Asosan, qorabayir, arab va qura zotli otlar qadrlanadi .

Yangiqo'rg'on tumani Farg'ona vodiysining eng qadimiy va madaniy jihatdan boy hududlaridan biri bo'lib, bu yerda ko'pkari o'yinlari alohida ahamiyatga ega. Ko'pkari faqatgina sport turi emas, balki xalqning o'ziga xos urf-odatlarini, madaniyatini va chavandozlik san'atini namoyon etuvchi milliy meros hisoblanadi. Aynan shu sababli, Yangiqo'rg'on o'tkaziladigan ko'pkari o'yinlari etnoturizmni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

Yangiqo'rg'on tumanidagi ko'pkari o'yinlari nafaqat mahalliy aholi, balki sayyohlar uchun ham qiziqarli tomosha bo'lib, ularni o'zbek xalqining an'anaviy urf-odatlari bilan tanishtirish imkonini beradi. Ko'pkari musobaqalariga kelgan mehmonlar quyidagi tajribalarni boshdan kechirishi mumkin:

- Milliy sport va chavandozlik san'ati bilan tanishish – Sayyohlar ko'pkari o'yinlarini tomosha qilib, chavandozlarning mahorati, uloq tortish texnikasi va otlarning chidamliligi bilan bevosita tanishadilar. Ular uchun mahalliy chavandozlar tomonidan maxsus mahorat darslari (master-klasslar) tashkil etilishi mumkin.

- Milliy taomlar festivali – Ko'pkari musobaqalarida mehmonlarga o'zbek xalqining an'anaviy taomlari, xususan, palov, shashlik, tandir go'sht, somsa va boshqa milliy taomlar tortilishi mumkin. Bu esa sayyohlar uchun unutilmas gastronomik tajriba yaratadi.

- Xalq hunarmandchiligi mahsulotlari ko'rgazmasi – Ko'pkari tadbirlari doirasida mahalliy hunarmandlarning mahsulotlari (chavandoz liboslari, kulolchilik buyumlari, yog'och o'ymakorligi, gilam va kashtado'zlik ishlari) namoyish etilishi mumkin. Bu esa nafaqat milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, balki turistlarga milliy suvenirlar sotish imkoniyatini ham beradi.

Ko'pkari Yangiqo'rg'on o'ziga xos marosimlar, ayniqsa, to'ylar va xalq bayramlari doirasida o'tkaziladi. Misol uchun:

- Bahor bayramlari – Navro'z va Mustaqillik bayramlari arafasida tashkil etilgan ko'pkari musobaqalari o'ziga xos etnoturistik tadbir bo'lib xizmat qiladi.

- To'y va ma'raka ko'pkarilari – Yangiqo'rg'on o'ziga xos to'ylar chog'ida ham ko'pkari o'yinlari o'tkazilib, bu tadbirlarga yuzlab chavandozlar va minglab tomoshabinlar yig'iladi.

- Hududlararo va xalqaro ko'pkari musobaqalari – O'zbekistonning boshqa viloyatlari va qo'shni davlatlardan (Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston) chavandozlar ishtirok etadigan yirik musobaqalar etnoturizmni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

Ko'pkari o'yinlari nafaqat madaniy tadbir, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali. Bu tadbirlar orqali mahalliy aholi turizm orqali daromad topishi mumkin:

- Mehmonxonalar va uy-mehmonxonalar – Turistlar ko'pkari o'yinlarini tomosha qilish uchun kelganida, mahalliy mehmonxonalar va xonadonlarda tunashlari mumkin.

- Mahalliy oziq-ovqat va restoran biznesi – Ko‘pkari tadbirlari mahalliy restoran va kafelar uchun qo‘shimcha daromad manbai bo‘lishi mumkin.

- Transport va gid xizmatlari – Sayyohlarni Yangiqo‘rg‘onga olib kelish, ularga ekskursiyalar tashkil qilish ham yaxshi biznes imkoniyatidir.

Xulosa qiladigan bo‘lsak Yangiqo‘rg‘on tumanida etnoturizmni rivojlantirishda “Ko‘pkari” ot sportining ahamiyati juda katta. Ushbu an‘anaviy milliy o‘yin nafaqat mahalliy aholining madaniy merosini saqlab qolishda, balki hududga sayyohlarni jalb etishda ham muhim rol o‘ynaydi. Maqolada “Ko‘pkari”ning tarixiy ildizlari, uning jamoaviy ruh va mardlikni tarbiyalashdagi o‘rni hamda turistik salohiyatni oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, sport turini xalqaro darajada targ‘ib qilish va infratuzilmani yaxshilash orqali Yangiqo‘rg‘on tumanida etnoturizmni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.33, 34, 390-395, 504, 505.
2. Диваев А.А. Известия общество. Туркестанский сборник. 1897.Т.478. – С.176.
3. Махмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк. Т.III. – Тошкент: Фан, 1961. – Б.263.
4. Махмудов Т. Авесто ҳақида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 46.
5. Назаров Ф.Записки о некоторых народов и землях средней части Азии. – М.: Наука, 1968. – С. 24-25.
6. Ибрагимов, Ишмурат. "Очерки быта киргизов". Древняя и новая Россия, 1876, №. 9, б. 51-63;
7. Хушбоқ Мардонакул ўғли. Алпомиш. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б. 25,39-40, 43-44, 76-77.
8. Худойбердиев Жўра «Улоқ» сўзининг маъноси нима?\\ "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси – О‘zbekiston, 2010. – № 22.
9. Йўлдошев С. Узлуксиз таълим-тарбия жараёнида халқ ўйинларининг тарихий, илмий педагогик асослари. – Фарғона: 2020. –25
10. Azizov A. A. Cult of the horse among the Uzbek people of the Fergana valley // Research result. Social studies and humanities. – T. 5, Vol. 3, 2019. P. 39-45
11. Djumaniyazova F. , Nuriddinova M. O‘zbeklarda Uloq-Ko‘pkari o‘ynining tarixi xususida\\Çankırı Karatekin Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi 4-jildi. – Turkiya, 2024. – № 1
12. Kabulov E., Rajapova S. Horse-breeding of the Oasis of Surkhan // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №11. С. 404-409.

13. Kabulov E., Rajapova S. Horse-breeding of the Oasis of Surkhan // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №11. С. 404-409.
14. O‘zbek Milliy Sport Turlari va Xalq O‘yinlari Ensiklopediyasi (2022). Toshkent.: Zamin Nashr. S.24
15. Zokirov, B. (2024). The role of national-cultural traditions and intangible cultural heritage in the development of ethno tourism. Science and innovation, 3(Special Issue 46), 794-796.
16. Одилов, Б. (2024). Некоторые комментарии о возможностях развития этнотуризма (на примере наманганской области, янгикурганского района). Science and innovation, 3(Special Issue 46), 507-510.